

**JUDIT MAK NOTNING “ILOHIY NAJOT” (“ALMOST HEAVEN”)
ASARIDA SO‘ZLASHUV NUTQI VA BADIY NUTQNING O‘XSHASH VA
FARQLI JIHATLARI**

Usmonova Zarina Habibovna

*Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Email: z.h.usmonova@buxdu.uz

Raximova Nargiza Makhsudovna

*1st year student of Master degree
Email: nargiza4414441@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu tezis Jillian Hartning *Almost Heaven* asari misolida so‘zlashuv nutqi (dialogik, kundalik muloqotga xos til birliklari) va badiiy nutq (mualliflik tasviri, ichki monolog, poetik ifoda) o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni tahlil qiladi. Tadqiqotda leksik, grammatik, sintaktik va pragmatik mezonlar asosida qiyosiy yondashuv asosida qo‘llanadi. Asardagi epizodlar va dialoglar asosida so‘zlashuv nutqining realizmi, personaj xarakterini ochishdagi roli hamda badiiy nutqning estetik va semantik yuklamasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: so‘zlashuv nutqi, badiiy nutq, dialog, ichki monolog, pragmatika, realizm, stilistika.

Kirish. Badiiy matnda nutqning turli qatlamlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanadi. So‘zlashuv nutqi hayotiylik va tabiiylikni ta‘minlasa, badiiy nutq mualliflik nigohi, emotsional rang-baranglik va estetik ta‘sirni ko‘rsatadi. *Almost Heaven* asari ana shu ikki qatlamning muvozanatli uyg‘unligini namoyon etadi: dialoglar personajlar o‘rtasidagi munosabatni jonlantiradi, tasviriy bo‘limlar esa ichki kechinmalarni yaqqol namoyon qiladi²⁰.

Asosiy qism. So‘zlashuv nutqi tushunchasi: So‘zlashuv nutqi — kundalik muloqotga xos bo‘lib, spontan, qisqa, ko‘pincha elliptik tuzilmalarga asoslanuvchi nutqdir.²¹ U dialoglarda, kinoya va hazilda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiiy nutq tushunchasi: Badiiy nutq — estetik maqsadga yo‘naltirilgan, obrazlilik, metafora, ichki monolog va tasviriy vositalar orqali mazmunni yanada chuqurlashtiruvchi nutqdir.²²

²⁰ Leech, G., Short, M. *Style in Fiction*. P.128-156

²¹ Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. P.291-372

²² Galperin, I. R. *Stylistics*. P.25-39

“Almost Heaven” asarida so‘zlashuv nutqining xususiyatlari dialoglarning tabiiyligida namoyon bo‘lgan. Asardagi dialoglar qisqa va vaziyatga mos kelgan. Masalan, Kendra va Cameron o‘rtasidagi suhbatlarda qisqa javoblar, kinoyali ohang va og‘zaki nutqqa xos soddalik personajlar orasidagi masofani va ichki taranglikni ochadi. Masalan:

“I wasn’t speeding.”

“Hey, Kendra. How are you doing this fine summer’s day?”

Qisqa javob, kundalik murojaat, og‘zaki nutqqa xos soddalik dialog realizmini ta’minlagan.²³

Ellipsis va qisqartmalardan ham foydalanilgan. So‘zlashuv nutqida gap bo‘laklarining tushirilishi (ellipsis) tez-tez uchraydigan hodisa bo‘lib, bu usul nutqni tezkor va tabiiy ko‘rsatadi, ayniqsa bahs yoki hazil jarayoni ko‘rsatilganda. Masalan:

- “Hot.”

To‘liq gapning tushirilishi (ellipsis) holatni tez va emotsional yetkazgan. Pragmatik ma’nodan ham izchil foydalanilgan.²⁴ So‘zlashuv nutqi ko‘pincha yashirin ma’noni olib yuradi. Cameronning muloyim hazillari uning bevosita aytilmagan his-tuyg‘ularni anglatadi. Masalan:

“Are you trying to get rid of me?”²⁵

Bevosita aytilmagan munosabat (kinoya va ohang) kontekst orqali anglashilgan.

Asardagi badiiy nutqning xususiyatlari bo‘lgan tasviriylilik va metaforalardan unumli foydalanilgan. Muallif tabiat tasvirlari va ichki kechinmalarni metafora orqali namoyon qiladi. Qahramonlarning ruhiy kechinmalari atrof-muhit bilan qiyoslab tasvirlanadi. Masalan:

“Grief weighed down his soul.”

“The overhead light haloed her golden hair and caressed her creamy complexion”²⁶.

Emotsional holat va obrazlilik metaforalar orqali berilgan. Ichki monologlar ko‘p qo‘llanilgan. Kendraning ichki monologlari badiiy nutqning asosiy qismi bo‘lib, uning qo‘rquv va umidlarini ochib beradi. Bu bo‘limlar dialogsiz ham mazmunni yorqin boyitadi. Masalan:

Get a grip, Kendra.”

“Don’t think about that night”²⁷.

Qahramonning ichki kechinmalari dialogsiz, badiiy nutq orqali ochilgan. Badiiy nutqda sifatlash, takroriy va ritmik tuzilmalar qo‘llanib, hissiy ta’svir kuchaytiriladi.

²³ Hart, J. Almost Heaven. P.15-45

²⁴ Hart, J. Almost Heaven. P.15-45

²⁵ Hart, J. Almost Heaven. P.15-45

²⁶ Hart, J. Almost Heaven. P.15-44

²⁷ Hart, J. Almost Heaven. P.15-45

So'zlashuv va badiiy nutq o'rtasidagi farqlar quyidagilar: So'zlashuv nuyqining tuzilishi qisqa, elliptik bo'lib, muloqot qilish maqsadida ishlatiladi, dialog va hazil vositalaridan foydalaniladi. Badiiy nutqning tuzilishi keng va tasviriy bo'lib, estetik ta'sirni kuchaytirish maqsadida ishlatiladi va metafora va monolog vositalaridan foydalaniladi. O'xshashliklar: Har ikki nutq turi personaj xarakterini ochishga xizmat qiladi.²⁸ Dialoglar voqeani oldinga siljitadi, badiiy tasvirlar esa mazmunni chuqurlashtiradi. Asarda so'zlashuv nutqi realizmni, badiiy nutq esa estetik mukammallikni ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ularning uyg'unligi o'quvchini voqea ichiga olib kiradi.

Xulosa. Jillian Hartning *Almost Heaven* asari badiiy matnda so'zlashuv nutqi va badiiy nutqning o'zaro uyg'unlashuvi qanday qilib asarning realizmi va estetik ta'sirini kuchaytirishini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, so'zlashuv nutqi asarda personajlararo munosabatlarni tabiiy va ishonarli tarzda ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qisqa, elliptik gaplar, kinoya va pragmatik ma'nolar orqali qahramonlarning xarakteri, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy masofasi jonli tarzda ifodalanadi. Badiiy nutq esa asarning semantik va emotsional qatlamini boyitib, qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda mualliflik pozitsiyasini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Metafora, ichki monolog, tasviriy va ritmik tuzilmalar orqali muallif o'quvchini personajlar ruhiy olamiga olib kiradi va voqealarning psixologik asoslarini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, *Almost Heaven* asari so'zlashuv nutqi va badiiy nutqning muvozanatli qo'llanilishi orqali nafaqat syujetni jonlantiradi, balki personaj psixologiyasini ochish, realizmni kuchaytirish va badiiy mukammallikka erishishda samarali namuna bo'la oladi. Ushbu tahlil badiiy matn stilistikasini o'rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Hart, J. *Almost Heaven*.P.15-45
- 2.Galperin, I. R. *Stylistics*.P.25-39
- 3.Leech, G., Short, M. *Style in Fiction*.P128-156
- 4.Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*.P.291-372
5. Rakhmatova, M. M., & Inoyatova, D. I. (2022). Conceptual and Figurative Structure of the Concept of "Ugliness". *Open Access Repository*, 8(04), 58-61.

²⁸ Leech, G., Short, M. *Style in Fiction*.P128-156

6. Rakhmatova, M. (2016). DISCUSSION ON VALUES, CULTURE, AND LANGUAGES. In International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 2, No. 11, pp. 40-42). ROST. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27198684>

7. Habibovna, U. Z. (2022). Truth And Fairness In “The Dead Zone” By Steven King's. JournalNX, 8(1), 77-80.

24. Usmonova, Z., & Quvvatova, D. (2021). The features of artistic functions in scientific fantasy (using the example of Ray Bradbury and Isaac Asimov's works). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.

25. Habibovna, U. Z. (2023). Rey Bredberining “Marsga Hujum”(“The Martian Chronicles”) Asari Tarjimasida Leksik Xususiyatlar. Miasto Przyszłości, 32, 354–357.

26. Usmonova, Z., & Nurulloyevna, I. U. (2024). THE LIGUISTIC ANALYSIS OF TERMINOLOGY RELATED TO CRAFTS IN THE STORY OF “A ROSE FOR EMILY” BY WILLIAM FAULKNER. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(46), 99-102.

27. Habibovna, U. Z. (2022). The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the “I Robot” By Isacc Asimov. Eurasian Research Bulletin, 7, 63-65.

28. Habibovna, U. Z. (2025). REALIAS AND UNIVERSALIAS IN TRANSLATION OF ENGLISH SI-FI. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 3(2), 633-639.

29. Habibovna, U. Z. (2024). THE USAGE OF TOPONYMS WITH LINGUACULTURAL FEATURES IN THE WORK OF “A ROSE FOR EMILY” BY WILLIAM FAULKNER. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 3(25), 94-97.

30. Naimova, A. M., & Baxronova, B. D. (2025). THE PECULIAR FEATURES OF MYTH MAKING TOOL IN PROSE. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(35), 66-69.

31. Djalilova, Z. (2022). СИМВОЛИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ ФИТОНИМОВ В ПОЭЗИИ М.ДРАЙТЕНА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4623